



# IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**№9**



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>

**2025**



## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

### Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 432 sahifa.*

*E'lon qilishga 2025-yil 1-sentyabrda ruxsat etildi.*

### Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

### Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

### Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi  
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati  
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari  
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor  
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor  
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)  
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)  
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldix'o'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.  
Utayev Uktam Choriyevich, O'z.Respub. Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari  
Ochilov Farkhod, O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i  
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi  
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.  
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)  
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)  
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)  
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari  
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi  
Golischeva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

### Editorial board:

- Salimov Okil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Rae Kwon Chung**, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate  
**Osman Mesten**, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Siddikova Sadokat Gafforovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Makhmudov Nosir**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, Candidate of Economic Sciences, Professor  
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khakimov Nazar Khakimovich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Musayeva Shoira Azimovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor  
**Ali Konak**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)  
**Cham Tat Huei**, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)  
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of Department, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhod**, Head of DCEC, Prosecutor General's Office of Uzbekistan  
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer  
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor  
**Judi Smetana**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Chrissy Lewis**, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)  
**Glazova Marina Victorovna**, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor  
**Sevil Piriyeva Karaman**, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE  
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli**, Senior lecturer at TSUI  
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.

## Ekspertlar kengashi:

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, texnika fanlari doktori (DSc), professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, falsafa fanlari doktori (DSc), professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Rustamov Ilhomiddin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, katta o'qituvchi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, mustaqil tadqiqotchi

## Board of Experts:

**Berkinov Bazarbay**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich**, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor  
**Aliyev Bekdavlal Aliyevich**, Doctor of Philosophy (DSc), Professor  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor  
**Khalikov Suyun Ravshanovich**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Rustamov Ilkhomiddin**, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor  
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics  
**Gafurov Doniyor Orifovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor  
**Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna**, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor  
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, Senior Lecturer  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, Independent Researcher

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Postdan xaridgacha: influenser va ilg'or veb-ilova (PWA – progressive web app)ning chakana sotuvga real ta'siri .....	14
<b>Abdulaziz Madjidov</b>	
Ta'lim xizmatlari bozori samaradorligini oshirishda ta'lim klasterlarining roli .....	22
<b>Imamova Nilufar Asamutdinovna</b>	
Korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda marketingning tovar strategiyasidan foydalanish holati.....	29
<b>Xidirov Sherzod Olimovich</b>	
O'zbekistonda moliyaviy savodxonlikni institutsionallashtirish: NFIS, Finlit.uz va ta'lim islohotlari .....	34
<b>Irgashev Anvar Farxodovich</b>	
Moslashuvchan menejment tizimlarini yashil iqtisodiyotga integratsiyalash tasnifi .....	39
<b>Umarov Bezzod Batirovich</b>	
Qishloq xo'jaligida innovatsion marketing strategiyasini ishlab chiqish.....	43
<b>Sheraliev Axror Sodiqovich</b>	
O'zbekiston Respublikasida moliyaviy bank xizmatlarini rivojlantirishning tendensiyalari, undan samarali foydalanish imkoniyatlari va konseptual jihatlari .....	48
<b>Roziqov Behzod Bahrom o'g'li</b>	
Metallurgiya korxonalarida raqamli texnologiyalarni joriy etish chet el tajribasi .....	54
<b>Abdullayeva Matluba Nematovna</b>	
Исследование связи между восприятием изменения климата и внедрением устойчивых методов ведения сельского хозяйства в Узбекистане .....	59
<b>Светлана Ражабова, Бахром Миркасимов</b>	
Surxondaryo viloyati qishloq xo'jalik tarmog'ini barqaror rivojlantirishni iqtisodiy-ekologik modellari .....	68
<b>Abdug'aniyev Otobek Allajonovich, Xo'jamqulov Bekzod Turdaliyevich</b>	
Milliy iqtisodiyotda real sektor salmog'i va uning o'zgarish tendensiyalari .....	75
<b>Mambetjanov Qahramon Qurbandurdievich, Isoilova Muhabbat Rustamjon qizi</b>	
Qo'shilgan qiymatni soliqqa tortish uslubiyoti: xususiyatlari, vazifalari va muammolari .....	89
<b>Xaitov Shuxrat Sharipboyevich</b>	
Kognitiv yondashuv asosida tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalari grammatik va diskursiv kompetensiyalarini shakllantirishning nazariy modeli va pedagogik texnologiyasi.....	94
<b>Dadadjanova Feruza Muhammadyusupovna</b>	
Transport tizimining rivojlanishi milliy iqtisodiy o'sishining asosi sifatida .....	98
<b>Narziyev Umidjon Baxrillayevich</b>	
Loyiha risklarini aniqlashda zamonaviy usullar va ularning samaradorligi.....	105
<b>Marufhanov Davron Xasanovich</b>	
Современные методы управления на железнодорожном транспорте в процессе трансформации системы.....	109
<b>Кушакова Мамура Наримановна</b>	
Финансовые механизмы и модели менеджмента в развитии устойчивой экономики транспортных компаний .....	115
<b>Шарапова Гулчебра Рустамовна</b>	
Kasbiy ta'limda o'quvchilarning raqamli kompetensiyasini shakllantirish va baholashning innovatsion yondashuvlari .....	120
<b>Maxkamova Zuhra Tursunpulotovna</b>	
Audit ishi sifati darajasini oshirish yo'nalishlari.....	124
<b>Qushmatov Otaxon Qurbonaliyevich</b>	



Erkin iqtisodiy zonalarda investitsiya loyihalarini moliyalashtirishning nazariy va amaliy asoslari.....	131
<b>Yuldashev Baxtiyor Gayradjonovich</b>	
Ko'chmas mulk qiymatini baholash va uning ekonometrik tahlili .....	135
<b>Jaloliddinova Mohira Alisher qizi</b>	
Современные тенденции и вызовы бюджетно-макроэкономической политики в Узбекистане .....	142
<b>Хазраткулова Лола Нармуминовна</b>	
Интеллектуал mulkda iqtisodiy mohiyat, mazmun hamda huquqiy jihat uyg'unligi.....	148
<b>N.D.Maxmudova</b>	
Axborot texnologiyalari asosida ta'limda loyiha boshqaruvida sun'iy intellekt va mashinali o'qitish imkoniyatlari .....	152
<b>Xodjiyeva Durdona Abdurasolovna</b>	
Концепция "Зеленого учета" и его значение для экономического развития.....	157
<b>Умарова Зулайхо Турсуновна</b>	
Iqtisodiyotning asosiy tarmoq va sohalariga kiritilgan investitsiyalarning joriy holati tahlili .....	166
<b>Ismailova Kutlibeka Ulug'bek qizi</b>	
O'zbekistonda yoshlar tashkiloti faoliyatini tashkil etishning o'ziga xos jihatlari va rivojlanish bosqichlari .....	172
<b>Usmonov Adxamjon A'zamjonovich</b>	
O'zbekiston Respublikasi maxsus iqtisodiy zonalarini investitsion holatini hududlar kesimida tahlili.....	178
<b>Anvarxonov Abdulatifxon Jamshidxon o'g'li</b>	
Kichik biznes va o'rta biznesni rivojlantirish orqali aholi farovonligini ta'minlash.....	184
<b>Ahmedov Oybek Turgunpulatovich, Nurqulov Nurbek Sirojiddin o'g'li</b>	
Fiskal siyosat instrumentlari orqali yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va legallashtirish metodologiyasi.....	189
<b>Ergasheva Malikaxon Avazxon qizi</b>	
Fond bozorida savdo strategiyasi va uni amalga oshirishga yo'nalishlari.....	192
<b>Soliyev Istam Ixtiyorovich</b>	
Sanoat korxonalarini innovatsion rivojlantirishning asosiy tamoyillari .....	197
<b>Yuldasheva Kamola Miraliyevna</b>	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda davlat boshqaruvi tizimining isloh qilinishi: Tajriba va istiqbollar.....	202
<b>Mashrabaliyev Ibroximbek Mashrabaliyevich</b>	
Iqtisodiyotning real sektorida investitsion loyihalarni moliyalashtirish amaliyoti.....	209
<b>Qosimova Lola Sultanovna</b>	
Sanoat mahsulotlari eksportida logistika zanjirining uzluksizligini ta'minlash: nazariy asoslar va amaliy yondashuvlar.....	217
<b>Kurbonova Ma'mura Abdukarim qizi</b>	
Soliq ma'murchiligiga zamonaviy texnologiyalarini joriy etish orqali qo'shilgan qiymat soliq ma'murchiligi bazasini kengaytirish yo'llari .....	222
<b>Raxmonqulov Umidjon Rustam o'g'li</b>	
Инновационные подходы к созданию проблемно-ориентированной системы прогнозирования, оптимизации и управления отраслями региональной экономики (жилищное строительство) .....	231
<b>Далиев Ахтам Шарафутдинович</b>	
Tovar-moddiy resurslar harakati samaradorligini oshirishda UZEX faoliyatining joriy holatini baholash.....	238
<b>Sherzod Xolmurodovich Pardayev, Mamatkulov Farrux Gulomjon o'g'li</b>	
Sog'liqni saqlash tizimida tadbirkorlik faoliyatining turlari .....	244
<b>Solikhova Dildora Alisher qizi</b>	



“O‘ztemiryo‘lyo‘lovchi” ajning asisii faoliyatini samaradorligini oshirishda autsorsing xizmatini joriy etish strategik asoslari .....	250
<b>Kaxarova Nilufar Yerkinjonovna</b>	
Mintaqani kompleks rivojlantirishning metodologik asoslari va ustuvor yo‘nalishlari.....	256
<b>Jumayeva Zulfiya Qayumovna</b>	
Sog‘liqni saqlash tashkilotarida xarajatlar samaradorligini ta‘minlash masalalari .....	260
<b>Raximova Maftuna Axmadjon qizi</b>	
Aksiyadorlik jamiyatlarida sof foydani taqsimlash bilan bog‘liq bo‘lgan soliq solish masalalari.....	264
<b>Suyunov Otabek Shuxrat o‘g‘li</b>	
O‘zbekiston qonunchiligida raqamli transformatsiya jarayonida elektron to‘lov kartalarini soxtalashtirishni jinoyatlashtirish.....	276
<b>Maxsadaliyeva Maftuna Toxir qizi</b>	
Mamlakatimizda intellektual xizmatlar bozorini rivojlantirish masalalari.....	281
<b>Miyassarov Davron Abdurashid o‘g‘li</b>	
Validation of the dutch eating behaviour questionnaire (DEBQ) in a sample of uzbek women.....	285
<b>Khursana Usmanova, Dr Muhammad Bilal, Dilafuz Qo‘chqorova</b>	
Iqtisodiy xavfsizlik tizimlarini o‘ziga xos jihatlari .....	295
<b>Nabiyev Bexzod Shavkatovich, Bayboboeva Firuza Nabijonovna</b>	
Davlat qarz siyosatini optimallashtirishda islomiy moliya instrumentlarining qo‘llanish imkoniyatlarini kengaytirish yo‘nalishlari .....	299
<b>Tilabov Nasrulla Tashmurotovich</b>	
Роль институциональных структур фондового рынка в обеспечении финансовой стабильности.....	305
<b>Камилова Севара Анваровна</b>	
The Impact of Digitalization on the Management System in the Entrepreneurial Environment of Uzbekistan.....	309
<b>Ibragimova Saida Ilkhomovna</b>	
China’s Investment Strategy in Uzbekistan: Sectoral Trends and Strategic Implications (2013–2024).....	313
<b>Maftuna Nuriddinova</b>	
Qo‘shilgan qiymat solig‘i tushunchasi va uning iqtisodiy mohiyati .....	319
<b>Eshkarayev Bobir Chariyevich</b>	
Raqamli boshqaruvning afzalliklari va uni rivojlantirish istiqbollari .....	324
<b>Xolbayeva Marg‘uba Qazoqboyevna</b>	
Korporativ boshqaruvning nazariy asoslari: O‘zbekistonda qo‘llanish imkoniyatlari.....	328
<b>Jumayeva Guzal Sherxon qizi</b>	
Audit organizations in Uzbekistan .....	332
<b>Razzaqov Jasur Xamraboevich, Yaqubov Matrasul Mavlonberdiyevich, Sabirova Nodira Komil qizi</b>	
Xorijiy investitsiyalarning turlari va xususiyatlari .....	337
<b>Gofurov Doston Boxromovich</b>	
Mahalliy budjet mablag‘larining samaradorligini oshirishda auditning o‘rni.....	341
<b>Primova Shaxnoza Komiljonovna</b>	
Модели управления государственными финансами в зарубежных странах.....	345
<b>Наимов Шохрух Шарофиддинович</b>	
O‘zbekistonning sirkulyar iqtisodiyotga o‘tishi: yashil o‘sinh indikatorlari tahlili .....	352
<b>Hakimov Anvarjon Abdulloyevich</b>	
Innovation management in the education system: practical challenges, international experience, and effective strategies based on the example of Uzbekistan.....	356
<b>Imomov Inomiddin Abdulxamidovich, Egamberdiyev Farxod Botirovich</b>	
Трансформация энергетического комплекса Узбекистана: текущее состояние и перспективы развития .....	363
<b>Хмель Е.В., Мирджалилова Д.Ш., Дерюгина Е.А., Лозовская Н.А.</b>	





Improving the efficiency of personnel management and optimizing labor costs in Sam Glass LLC.....	368
<b>Musayeva Shoirazimovna, Agzamov Avazkhon Talgatovich</b>	
Interactive design and museum management: enhancing guided tours through IOT and virtual solutions.....	374
<b>Ibrokhimova Aziza Abbasovna</b>	
Hududlar investitsion jozibadorligini oshirish yo'llari.....	379
<b>Imomova Kamola Novfal qizi</b>	
“Innovatsion usulda baliq yetishtirishning iqtisodiy samaradorligini oshirish yo'llari (Sirdaryo tumani misolida)” .....	385
<b>Bo'ltakov Sardor Oqbo'ta o'g'li</b>	
Bank filial tarmoqlari samaradorligini baholashning xorijiy tajribasi va undan O'zbekiston banklari amaliyotida foydalanish imkoniyatlari .....	392
<b>Xoshimov Og'abek Nizomjon o'g'li</b>	
Zamonaviy iqtisodiyotda davlat xaridlarinin elektron savdolarning o'rni .....	398
<b>Burxanov G'ofur Baxodirovich</b>	
Реализация концепции развития рынка зеленой экономики в сфере экономической безопасности Республики Узбекистан.....	401
<b>Юнусова Римма Рахманбердиевна</b>	
Tijorat banklaridan “foйда” solig'ini undirishning bugungi holati.....	408
<b>Ergasheva Lobar Rahmatulla qizi</b>	
O'zbekiston oziq-ovqat sanoatini iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari .....	415
<b>Abasova Gulirano Rahmatullo qizi</b>	
Xorijiy tajribalar asosida ekologik tadbirkorlikning innovatsion va investitsion yo'nalishlarini tashkil etish .....	419
<b>Turg'unova Tursunoy Maratovna</b>	
Sanoat korxonalarini jozibadorligini oshirishda marketing strategiyasini amalga oshirish xususiyatlari .....	424
<b>Raxmonova Feruza Musakulovna</b>	
Turizm sohasida investitsion faoliyat: nazariy asoslar va amaliy yo'nalishlar.....	428
<b>Ergashev Durdonaxon Aziz qizi</b>	





# TURIZM SOHASIDA INVESTITSION FAOLIYAT: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY YO'NALISHLAR

**Ergashev Durdonaxon Aziz qizi**

Toshkent amaliy fanlar universiteti o'qituvchisi

Email: Durdona1481@gmail.com

ORCID: 0009-0008-2698-5625

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada O'zbekistonda turizm sohasini moliyalashtirish manbalari va ularning turlari keng qamrovdagi yoritilgan. Davlat budjeti, xususiy sektor mablag'lari, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlari, xorijiy investitsiyalar, xalqaro moliya institutlari hamda ichki moliyaviy resurslar turizm infratuzilmasini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlari sifatida tahlil etilgan. Shuningdek, to'g'ridan-to'g'ri, bilvosita, aralash va innovatsion moliyalashtirish shakllari hamda Turkiya, Ispaniya, Birlashgan Arab Amirliklari va Singapur tajribalari asosida xorijiy amaliyotlar o'rganilgan. Maqolada turizm infratuzilmasini rivojlantirishda investitsiya jarayonining nazariy asoslari ochib berilgan.

**Kalit so'zlar:** turizm, moliyalashtirish manbalari, investitsiya, davlat-xususiy sheriklik, infratuzilma, xorijiy tajriba.

**Abstract:** This article explores the sources and types of financing in Uzbekistan's tourism sector. It analyzes the role of the state budget, private sector funds, public-private partnership mechanisms, foreign investments, international financial institutions, and domestic sources in the development of tourism infrastructure. The study also highlights direct, indirect, mixed, and innovative financing methods, as well as international experiences from Turkey, Spain, the UAE, and Singapore. Furthermore, the paper presents the theoretical foundations of investment processes in tourism infrastructure development.

**Key words:** tourism, financing sources, investment, public-private partnership, infrastructure, international experience.

**Аннотация:** В данной статье подробно рассматриваются источники финансирования и виды инвестиций в сфере туризма Узбекистана. Анализируются роль государственного бюджета, частного сектора, механизмов государственно-частного партнерства, иностранных инвестиций, международных финансовых институтов и внутренних источников в развитии туристической инфраструктуры. Освещены прямое, косвенное, смешанное и инновационное финансирование, а также зарубежный опыт Турции, Испании, ОАЭ и Сингапура. В работе раскрыты теоретические основы инвестиционных процессов в развитии туристической инфраструктуры.

**Ключевые слова:** туризм, источники финансирования, инвестиции, государственно-частное партнёрство, инфраструктура, зарубежный опыт.

## KIRISH

XXI asr boshida turizm eng tez va dinamik rivojlanayotgan iqtisodiy faoliyat turlaridan biri sifatida tavsiflanadi. Tadqiqotchilar fikricha, ushbu tarmoq jahon yalpi mahsulotining qariyb o'ndan bir qismini ta'minlamoqda va yaqin yillarda tadbirkorlikning eng muhim sektoriga aylanishi mumkin [9]. Turizm iqtisodiy, ijtimoiy, xizmat ko'rsatish, turoperatorlik va turagentlik faoliyatlari kabi keng ko'lamli yo'nalishlarni qamrab oladi.

Hozirgi sharoitda har bir tarmoq ishlab chiqarishning yangi yo'llari va usullarini izlamoqda, mavjud holat tahlil qilinib, istiqbollari belgilanmoqda. Bu jarayonlar bevosita turizmga ham taalluqlidir: tarmoq aholining sayohat ehtiyojlarini qondirish hamda turli xizmatlar — turar joy, ovqatlanish, transport, ekskursiya va boshqa servis turlarini taklif etish orqali foyda olishga yo'naltirilgan.

Hududiy miqyosda turizm rivoji ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni yaxshilashga sezilarli hissa qo'shadi. Soha qariyb 50 ta bog'liq tarmoqlarni qo'llab-quvvatlaydi va ko'plab ish o'rinlari yaratadi. Hisob-kitoblarga ko'ra, bitta turist taxminan 10 nafar kishining bandligiga ta'sir ko'rsatadi, turizmga 1 ta ish o'rni yaratish sanoatga nisbatan qariyb 20 baravar arzonga tushadi [10]. Keng ma'noda turizm — transport va turistik korxonalar, kommunal va mehmonxona xo'jaligi, kapital qurilish, umumiy ovqatlanish va maishiy xizmatlar tarmoqlarini birlashtiruvchi tarmoqlararo kompleksdir. Shu bois turizm bozor mexanizmlarini joriy etish, mahalliy budjet daromadlarini to'ldirishning muhim manbaiga aylanishi mumkin.

Shu bilan birga, ayrim davlatlarda turizmning iqtisodiyotga ta'siri hozircha past darajada qolmoqda: mamlakatga dunyo turistik oqimining atigi qariyb 1 foizi to'g'ri kelmoqda [11]. Bunday sharoitda tarmoqni rivojlantirishning hal qiluvchi omili investitsion faoliyat bo'lib, u xizmat ko'rsatish sharoitlarini yaxshilash



va moddiy-texnik bazani yangilashga qaratilgan. Shunga ko'ra, ushbu tadqiqotning maqsadi — turizmga investitsiya oqimini belgilovchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini hisobga oluvchi investitsion qaror qabul qilish modelini ishlab chiqishdan iborat.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Turizm biznesi va tarmoqdagi investitsion faoliyat muammolariga qiziqish yil sayin ortmoqda. Bu yo'nalish Balabanov I.T. (2007), Gulyaev V.G. (2009), Jdanov V.P. (2006), Kvartalnov V.A. (2000; 2008), Cooper C. (2008) va boshqa olimlarning ilmiy ishlarida keng yoritilgan [11]. Biroq turizmga investitsiya qilish masalalari hali ham kompleks yondashuvni talab etadi. Ilmiy nashrlarda investitsion faoliyat ko'proq turizmni rivojlantirishning shakli sifatida talqin qilinmoqda. Hududiy turizmga kapital jalb etishda sistemali yondashuv asosiy shart bo'lib, u qulay investitsion muhitni shakllantiradi.

Butler R. (1980) o'zining "Tourism Area Life Cycle" konsepsiyasida turizm hududlarining rivojlanish bosqichlarini bayon etib, ularning har birida investitsion ehtiyojlarning turlicha bo'lishini ko'rsatadi [12]. Dastlabki bosqichlarda davlat investitsiyasi ustunlik qilsa, keyingi — barqarorlashgan bosqichlarda xususiy kapitalning roli keskin ortadi.

Dwyer L. va Forsyth P. (1993) investitsiya oqimlarini tahlil qilib, turizm infratuzilmasiga kapital qo'yilmalar makroiqtisodiy o'sishga bevosita va bilvosita ta'sir ko'rsatishini ochib bergan [13]. Ularning fikricha, investitsiyalar nafaqat daromad keltiradi, balki bandlik darajasini oshirish va hududiy tenglikni ta'minlashda ham muhim omil hisoblanadi.

Sharpley R. (2009) esa turizm barqarorligi nazariyasiga asoslanib, infratuzilmani rivojlantirish jarayonida ekologik va ijtimoiy omillarni hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi [14].

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot uchun turizm sohasiga oid ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Turizm qo'mitasi hisobotlari, Davlat statistika qo'mitasi ochiq ma'lumotlari hamda xalqaro tashkilotlar (UNWTO, WTTC) bazalaridan olindi. To'plangan statistik ma'lumotlar taqqoslash, trend tahlili va korrelyatsion baholash usullari yordamida qayta ishlanib, turizm investitsiyalarining rivojlanish dinamikasi va samaradorligi aniqlab berildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Turizm sohasiga investitsiya jarayoni bir necha izchil bosqichlarni qamrab oladi. Avvalo, investitsiya maqsadlari va ustuvor yo'nalishlari aniqlanadi. Keyingi bosqichda investitsion siyosat ishlab chiqilib, portfel tarkibi, xavf darajasi hamda qaytish muddatlari muvofiqlashtiriladi. Shundan so'ng moliyalashtirish manbalari belgilanib, davlat, xususiy sektor va xalqaro institutlardan resurslar jalb etiladi. Yakuniy bosqichda esa loyiha natijalari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik ko'rsatkichlar asosida samaradorlik nuqtayi nazaridan baholanadi (1-jadval).

1-jadval. Turizmni moliyalashtirish manbalari va ularning afzalliklari [13]


Manba	Misollar	Afzalliklari	Kamchiliklari
Davlat budjeti	Infratuzilma qurilishi, kadrlar tayyorlash	Barqaror va uzoq muddatli moliyalashtirish	Budjetga yuklama oshadi
Xususiy sektor	Mehmonxonalar, restoranlar, dam olish maskanlari	Tezkorlik, innovatsion yondashuv	Faqat foydali loyihalarga qiziqish
DXSh	Yo'llar, aeroportlar, turizm klasterlari	Risklarni taqsimlash, barqarorlik	Huquqiy asoslar zaif bo'lsa, risk yuqori
Xorijiy investitsiyalar	BAA, Turkiya, Koreya kompaniyalari	Zamonaviy tajriba va texnologiya kirib keladi	Siyosiy va iqtisodiy xavflar mavjud
Xalqaro institutlar	Jahon banki, ADB, UNWTO	Grant va arzon kreditlar	Murakkab shartlar va monitoring
Innovatsion mexanizmlar	Kraudfanding, green bonds, tokenlashtirish	Yangi imkoniyatlar va yosh tadbirkorlar uchun qulay	Huquqiy asoslar hali to'liq shakllanmagan



Jahon banki investitsiya hajmiga ta'sir qiluvchi omillarni quyidagicha belgilaydi:

- qonunlarning sust ijrosi;
- korrupsiya;
- milliy valyutaning beqarorligi;
- ijtimoiy sohadagi keskin o'zgarishlar;
- Konstitutsiya sifati va unga kiritilgan o'zgartishlar;
- siyosiy jarayonlar holati;
- harbiy mojarolar.

Investitsion iqlim potensial va xavfning funksiyasi sifatida talqin qilinadi. U miqdoriy (rekreasion-tabiiy resurslar, infratuzilma holati, kadrlar malakasi) va sifat ko'rsatkichlari (ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi, siyosiy barqarorlik, qonunchilik va ijro intizomi) orqali ifodalanadi. Shunga asoslanib, investitsion iqlimni belgilovchi omillar: siyosiy barqarorlik; qonunchilik va ijro intizomi; investitsiya bozori va uning infratuzilmasi; milliy investitsion resurslar hamda pul-kredit siyosati; korrupsiya va byurokratiya darajasi; turizm korxonalarining raqobatbardoshligi va xalqaro standartlarga muvofiqligi; soliqqa tortish tizimi; qurilish-montaj salohiyati va jihozlar bilan ta'minot (1-rasm).



1-rasm. DXSh modeli asosida turizm infratuzilmasi rivojlanish jarayoni [5]

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, iqtisodiy o'sishni jadallashtirish yo'llaridan biri — xorijiy investitsiyalarni jalb etishdir. Bu mahalliy ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va import o'rnini bosish imkonini yaratadi. Xorijiy kapital oqimini kuchaytirish uchun korxonalar faoliyatining shaffofligi, investorga tezkor ma'lumot beruvchi axborot-kommunikatsiya tizimlari muhim. Qisqa va uzoq muddatli qarorlarni tez qabul qilish imkoniyatini beruvchi raqamli yechimlar investitsion jarayonni faollashtiradi.

Investitsiya muhitini faollashtirish bo'yicha zarur shartlar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin [11]:

- xususiy mulk kafolatlarini huquqiy jihatdan ta'minlash;
- xo'jalik qarorlarini qabul qilish uchun iqtisodiy mezon va shartlar tizimini ishlab chiqish;
- narxlarni liberallashtirish, turizm xizmatlarida bozor yondashuvlarini qo'llash;
- tashqi savdo va valyuta bozorini liberallashtirish;
- bozor infratuzilmasi va kapital bozorini shakllantirish.

Turizm tarmog'i mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy aloqalarni jonlantiradi, iqtisodiy salohiyatni kengaytiradi va hududning xalqaro reytingini oshiradi. Biroq ko'plab hududlarda moddiy-texnik baza xalqaro standartlarga to'liq mos emas, sezilarli yangilanishga muhtoj. Eng muhim bo'g'inlardan biri — mehmonxona xo'jaligi. Mehmonxona sektorida kapital qaytimi nisbatan tez bo'lishiga qaramay, ko'plab hududlarda rivojlanish asta-sekin bormoqda. Demak, qo'shimcha investitsiyalar zarur.

Ko'pincha turizm korxonalarini yirik investitsion loyihalarni amalga oshirish uchun yetarli ichki mablag'larga ega emas. Shu bois dastlabki bosqichlarda xorijiy investitsiyalarni jalb etish dolzarb. Xorijiy kapital uchun imtiyozli rejim (soliq, bojxona, yer-huquqiy kafolatlar) — hududiy investitsion muhitning ajralmas qismi bo'lib, investorlar qiziqishini va loyihalarning banklanishini oshiradi. Barqaror va qulay muhit moliyaviy xavflarni kamaytiradi va investitsiya samaradorligini ta'minlaydi.

Kolmykova (2009) ta'riflagan ikki asosiy yondashuv [15]:

Bir maqsad — bir nechta yo'l: bitta maqsadga erishish uchun turli tashkiliy, iqtisodiy, texnologik, ekologik yechimlarni solishtirish.

Turli maqsadlar — turli variantlar: har bir maqsad bo'yicha alohida investitsiya talabi, daromad va foyda potentsiali bor.

Har ikki holatda ham vazifa — taqqoslamali iqtisodiy samaradorlik asosida eng yaxshi variantni tanlash. Variantlarni taqqoslash uchun metodik yondashuvlar bir xil bo'lishi shart; aks holda xatoliklar turlicha bo'ladi va natijalar solishtirib bo'lmaydi. Masalan, bir loyiha uchun ekstrapolyatsiya, boshqasi uchun ekspert bahosi, uchinchi uchun parametrik prognoz qo'llansa, aniqlik darajalari farqi taqqoslashni buzadi. Shu bois barcha variantlar bir xil xizmat hajmi, bir xil muddatlar va sifat ko'rsatkichlariga nisbatlanib hisoblanishi lozim.

Tanlov mezonlari: turizm obyektlarining daromadlilikligi; korxonaning sof daromadi; investitsiya rentabelligi (ROI/IRR); investitsiya qaytish muddati (PP); ijtimoiy va ekologik effektlar; atrof-muhitga salbiy ta'sirni qisqartirish.

Noaniqlik — loyiha shartlari haqidagi ma'lumotning to'liq emasligi va aniqlik pastligidir. U darajasiga qarab xavf kuchayadi. Turizm korxonalarini odatda ikki asosiy xavfga duch keladi: moliyaviy (foiz stavkalari, valyuta



kurslari, likvidlik) va tadbirkorlik (talab tebranishi, mavsumiylik, raqobat). Investitsiya qarorlariga iste'molchi qiymati (xizmatning ehtiyojni qondirish qobiliyati) va investor uchun olinadigan ustunliklar ham bevosita ta'sir qiladi.

Tadqiqotda taklif etilgan soddalashtirilgan model investitsion qarorlarni ishlab chiqishda loyiha tayyorgarligi davomida olingan ma'lumotlarni tizimli hisobga olishga imkon beradi. Model:

- alternativlarni taqqoslash (masalan, yangi mehmonxona qurish yokimavjudini ijaraga olish);
- qurilish/ijara qiymati, ekspluatatsiya xarajatlari va kutilayotgan daromadlarni bir tizimda hisoblash;
- strategik tanlovni qo'llab-quvvatlash (masalan, ichki-kiruvchi turizmga sarmoya kiritish orqali chiqish turizmiga raqobat yaratish, valyuta tushumini oshirish).

Modelni turli yo'nalishlarda — chiqish turizmi (kam xarajat, qisqa muddatli foyda) va ichki/keluvchi turizm (ko'proq kapital, uzoq muddatli daromad) o'rtasida tanlovda qo'llash mumkin. Muhimi, tanlov aniq maqsadlar, yagona metodika va taqqoslanadigan ko'rsatkichlarga tayansin.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot turizmga investitsiya oqimini belgilovchi omillarni aniqladi hamda ularni hisobga oluvchi investitsion qaror qabul qilish modelini taklif etdi. Ushbu modelni hududiy amaliyotda qo'llash turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan investitsion dasturlar samaradorligini oshiradi: investitsiya sikli qisqaradi, kapitaldan foydalanish samaradorligi va korxonada daromadliligi yaxshilanadi. Umuman, qulay investitsion muhit, shaffof boshqaruv va yagona metodik yondashuv turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishning asosiy shartlaridir.

Tadqiqot natijasida quyidagi takliflar shakllantirildi:

Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish – O'zbekistonda turizmni moliyalashtirishda davlat budjeti va xususiy sektor mablag'lari bilan cheklanib qolmasdan, xalqaro moliya institutlari, kraudfanding platformalari hamda yashil obligatsiyalarni faol jalb etish zarur.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarini kengaytirish – turistik infratuzilma (mehmonxonalar, transport, madaniy obyektlar) qurilishi va boshqaruvida davlat hamda xususiy sektor uyg'unligiga erishish.

Xorijiy tajribalarni implementatsiya qilish – Turkiyaning turizm daromadlarini ko'paytirishda DXSh, Ispaniyaning xususiy sektor yetakchiligi, BAAning diversifikatsiyalashgan investitsiya manbalari va Singapurning raqamlashtirish bo'yicha yondashuvini O'zbekiston amaliyotiga moslashtirish.

Innovatsion moliyalashtirish mexanizmlari – blokcheyn asosida turistik aktivlarni tokenlashtirish, ekologik obligatsiyalar chiqarish va turizm loyihalari uchun kraudfanding platformalarini joriy etish.

Hududiy turizm klasterlarini rivojlantirish – turizm resurslari boy hududlarda (Samarqand, Buxoro, Xiva, Surxondaryo) turistik markazlarni moliyalashtirish orqali ichki va tashqi turizmni kengaytirish.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dwyer, L., Forsyth, P., & Dwyer, W. (2010). *Tourism Economics and Policy*. Channel View Publications.
2. Sharpley, R., & Telfer, D. J. (2015). *Tourism and Development in the Developing World*. Routledge.
3. United Nations World Tourism Organization (UNWTO). (2022). *Tourism and Investment Report*. Madrid: UNWTO.
4. OECD. (2021). *Financing Tourism for Sustainable Development*. Paris: OECD Publishing.
5. WTTC (World Travel & Tourism Council). (2023). *Travel & Tourism Economic Impact Report*. London: WTTC.
6. Hall, C. M., & Page, S. J. (2019). *The Geography of Tourism and Recreation: Environment, Place and Space*. Routledge.
7. Buhalis, D., & Law, R. (2008). Progress in information technology and tourism management: 20 years on and 10 years after the Internet. *Tourism Management*, 29(4), 609–623.
8. Kozak, M., & Kozak, N. (2016). Funding and Financing Tourism Development: A Comparative Approach. *Tourism Economics*, 22(2), 345–364.
9. Кифяк В. Ф. Организация туристической деятельности в Украине. – Черновцы: Книги – XXI. 2003. – 300 с.
10. Мальская М. П., Худо В. В., Чубук В. И. Основы туристического бизнеса. – К.: Центр учебной литературы, 2004. – 272с.
11. Свиридова Н. Д., Негода А. А. Инвестиционная деятельность как форма развития регионального туризма // Научный результат. Технологии бизнеса и сервиса. –Т. 6, No 1, 2020, с. 22-29, DOI: 10.18413/2408-9346-2020-6-1-0-3, URL: <https://rbusiness.ru/journal/article/1979/>
12. Butler, R. (1980). The Concept of a Tourist Area Cycle of Evolution: Implications for Management of Resources. *Canadian Geographer*, 24(1), 5–12
13. Dwyer, L., & Forsyth, P. (1993). Tourism's Contribution to International Trade. *Annals of Tourism Research*, 20(2), 351–368.
14. Sharpley, R. (2009). *Tourism Development and the Environment: Beyond Sustainability?* London: Earthscan.
15. Колмыкова Т. С. Инвестиционный анализ: учеб. пособие. – М.: ИНФРА-М, 2009. – 204 с.





## IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o'g'li

---

**2025. № 9**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Ei.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>